



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## FAXRIYORNING POETIK MAHORATI

**Ahmatova Muxlisa Akmaljon qizi**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,  
filologiya fakulteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Faxriyor ijodiga xos poetik mahorat: xalq tiliga yaqinlik, ohangdorlik, erkin vazn, noan'anaviy tuzilmalar, ta'sirchanchlik to'g'risida so'z yuritiladi. Shoirning ishq va hijron mavzularida yozilgan misralari tahlil uchun asos qilib olindi.

**Annotation.** This article discusses the poetic skills inherent in Fakhriyor's work: closeness to the vernacular, melodiousness, free verse, unconventional structures, and expressiveness. The poet's verses on the themes of love and exile were taken as the basis for the analysis.

**Kalit so'zlar:** poetika, ohangdorlik, takroriylik, semantika, metafora.

**Keywords:** poetics, melody, repetition, semantics, metaphor.

Faxriyor – zamonaviy o'zbek she'riyatining vakili bo'lib, o'ziga xos uslub va badiiy mahorat bilan tanilgan shoir. Faxriyording she'riy tili xalq tiliga yaqin, ammo u so'zlarni nafis tanlaydi, har bir misra ohangdor va esda qolarli bo'ladi. U an'anaviy she'riyat shakllaridan tashqari, erkin vazn, noan'anaviy tuzilmalar orqali ham o'z fikrini ifodalaydi. Bu esa uning zamonaviy poetik tafakkurga ega ijodkor ekanini ko'rsatadi. Shoir nozik ruhiy holatlarni ta'sirchan tarzda ifoda eta oladi.

Ko'ngil ozoringni chekadir,  
Un sayin, tun sayin, kun sayin,  
Yaproq'iga xazon tegadi...

Bu misralarda ko'ngil ozori-ya'ni ichki iztirob, armon yoki sog'inch holati samimiy ifodalangan. Takroriylik – ohangdorlikni yuzaga chiqarish bilan birga hissiyotning bosqichma-bosqich chuqurlashib, vaqt o'tgan sayin bu ozorlar kuchayib borayotganligini tasvirlagan. Vaqt tushunchasini – "un, tun, kun"- orqali ifodalab, ko'ngildagi azob to'xtovsiz, davomli ekanligini ifodalagan.

Shoirning she'rlarini asosan ishq va hijron mavzulari egallagan. Quyidagi misralarda ham armonga aylangan, biroq xotiradan o'chmasdan azob berayotgan bir muhabbat haqida kuylangan.

Qo'r izlab kul titgan bola singari  
Titkilab o'tirar xotirni sog'inch  
Olis ehtiroslar yo'qdir tingani,  
Ko'ksimda yong'in-u ko'zimda yog'in

Birinchi satrda sog'inch ko'r-ko'rona bir narsa izlayotgan, umidsiz, ammo chidamli bola obrazida gavdalanadi. Bola, kul, qo'r – hamma biladigan, tanish so'zlar,





ammo bu so‘zlar ruhiy holatni aks ettirishda ajoyib namuna vazifasini o’tay olgan. Xotira va sog‘inch murakkab munosabat. Sog‘inch xotiraga qarshi emas, balki uni “titkilab”, o‘tmishni yana va yana uyg‘otadi, yurakni tilka-pora qiladi.

Keyingi “Ko‘ksimda yong’in- ko‘zimda yog’in” misrasi kuchli badiiy kontrastga ega. Yong’in- ichki kuygilik, ehtiros, yurakdagagi izzirobni; yog’in-ko‘z yoshlari, tashqi izzirobni bildiradi. Bu qarama-qarshi obrazlar inson qalbidagi ichki va tashqi kechinmalarning bir vaqtning o‘zida mavjudligini ifodalaydi. Bu ikki obraz bir-birini to‘ldiradi. Yurak yonadi, ko‘z esa yig‘laydi-ruhiy izzirobning eng baland cho‘qqisi. “Yong’in – yog’in” so‘zlari tovush jihatidan uyg‘un v ta’sirchan. Bu fonetik yaqinlik orqali she’riy musiqiylik oshadi, esda qoladi, yurakka tez yetadi. Faxriyor Nizomiddinov yuqoridagi misralarda ichki azobni poetik va estetik jihatdan nihoyatda kuchli tarzda ifodalagan. Bunday satrlar uning kechinmani badiiyatga aylantira olish mahorati, timsol va metaforalardan samarali foydalanishi hamda fonetik va semantik uyg‘unlikni his etishi borasidagi yuqori darajadagi shoirligini isbotlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Faxriyor. (2013). Izlam. Toshkent: “Akademnashr”.
2. G‘aniyeva N. (2008). Adabiy obraz va badiiy tafakkur. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Vohidov S. (2001). She’r va tafakkur. Toshkent: “Sharq”.
4. Qo‘chqorov A. (2012). Badiiy matn tahlili asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

